



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-FEVRAL


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari uchun)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida jami 482,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida qurilish ishlari




2024- yilning yanvar-fevral oyida hududlar kesimida, xususan, Urganch shahri (119,4 mlrd. so'm), Urganch tumani (45,8 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (44,1 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 66,4 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 29,7 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 123,9 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 83,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 73,8 %i yoki 356,2 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 36,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 88,8 %ni tashkil etdi.

88,8 %

36,7
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 170,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,1 %ni tashkil etdi.

60,1 %

170,9
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissi 148,8 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 41,7 %ni tashkil etdi.

41,7 %


148,8
mlrd. soʻm

Yillar kesimida yangi qurilish ishlarining hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmda yangi qurilish ishlarining ulushi


2024- yilning yanvar-fevral oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Urganch shahri (79,5 mlrd. so'm), Xiva tumani (41,4 mlrd. so'm), va Urganch tumanida (39,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi – **482,9 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,5 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga ko'payidi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 58,9 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamayib, 101,0 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 41,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 157,4 %ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,3 % ga kamayib, 8,5 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Urganch shahri.



Urganch tumani




Yangiobzor tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 59,3 %i), Urganch tumanida (12,4 %) va Yangiobzor tumanida (10,7 %) qayd etildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi

2023- y.



2024- y.



2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,9 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etgan holda 284,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

101,6 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

62,9 %

150,0
mlrd. so'm

280,8
mlrd. so'm

331,8
mlrd. so'm

240,3
mlrd. so'm

284,3
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

111,1 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

102,4 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

113,0 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so'm




Jamiga nisbatan ulushi



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahri (76,4 mlrd. so'm), Xiva tumani (11,0 mlrd. so'm) va Urganch tumaniga (9,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,6 %ni yoki 157,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni tashkil etdi. Shundan 90,8 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,9 %ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 58,0 mlrd. so'mni va 93,8 %ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 8,4 mlrd. so'mni va 103,0 % ni tashkil etdi.

Oldingi yilning mos
davriga nisbatan
98,1 %

Oldingi yilning mos
davriga nisbatan
94,1 %

100,1
mlrd. so'm

117,6
mlrd. so'm

132,8
mlrd. so'm

141,1
mlrd. so'm

157,2
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

97,3 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

102,5 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

101,0 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



18,5 mlrd. soʻm
Urganch shahri



17,6 mlrd. soʻm
Xonqa tumani




14,0 mlrd. soʻm
Urganch tumani

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahrida (18,5 mlrd. soʻm), Xonqa tumanida (17,6 mlrd. soʻm), va Urganch tumanida (14,0 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar-fevral oylarida hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 36,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 446,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 7,5 % va 92,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 11,8 %i), Xonqa tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 11,2 %i) va Urganch tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 8,9 %i) qayd etildi.

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.